


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-avgust)


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha joriy yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3 374,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,0 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 441,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 153,3 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2 933,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 104,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 187,8 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,5 %) tashkil etdi.

### Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri, Shumanoy, Beruniy va Xo'jayli tumanlarida qayd etildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'rish sur'atlari, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (respublika umumiy hajmiga nisbatan ulushi - 31,1 %), Beruniy (9,4 %), Xo'jayli (9,4 %), To'rtko'l (8,9 %) va Qo'ng'iro't (7,2 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 53,3 %ga o'sdi va 441,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,1 %iga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 2 933,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 4,4 %ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,9 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


2018 yil  
yanvar-avgust

2019 yil  
yanvar-avgust



Yirik korxonalar  
Kichik tadbirkorlik

### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



Kichik tadbirkorlik  
Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qonliko`l (99,8 %), Qorao`zak (99,6 %), Nukus (99,4 %), Kegayli (99,4 %) va Taxtako`pir (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,1 %ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (32,1 %), Taxiatosh (19,5 %) va To`rtko`l (10,4 %) tumanlarida kuzatilgan.

### **Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>441 134,8</b>	<b>153,3</b>	<b>2 933 144,0</b>	<b>104,4</b>
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	13 233,8	85,8	216 137,1	108,1
Beruniy	7 646,6	86,9	309 341,2	107,7
Qonliko`l	198,3	164,4	86 366,0	106,5
Qorao`zak	452,5	71,7	111 000,4	105,5
Kegayli	447,1	95,8	70 873,3	105,1
Qo`ng`irot	10 235,7	164,0	231 380,7	104,9
Mo`ynoq	456,2	98,2	23 418,1	105,9
Nukus	385,3	69,3	62 102,1	106,8
Taxiatosh	15 481,2	94,5	63 947,0	109,3
Taxtako`pir	648,9	98,7	86 245,2	105,9

To`rtko`l	31 075,5	82,6	267 689,6	110,4
Xo`jayli	7 443,7	129,4	309 388,4	106,3
Chimboy	11 902,3	97,1	124 999,5	106,9
Shumanoy	602,5	123,6	71 921,7	107,4
Ellikqal`a	3 649,5	161,0	185 994,9	104,6
Nukus sh.	337 275,7	187,8	712 338,9	97,4

2019 yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo`yicha aholi jon boshiga 1 798,8 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-avgust oylarida o`tgan yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o`sish qayd etilib, eng yuqori ko`rsatkichlar Nukus shahri (3 320,5 ming so`m), Xo`jayli (2 607,7 ming so`m) va Taxtako`pir (2 177,8 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Mo`ynoq (760,3 ming so`m), Kegayli (796,9 ming so`m) va Taxiato`sh (1 088,1 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich respublika shahar va tumanlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>1 798,8</b>	<b>107,4</b>
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1 169,7	104,4
Beruniy	1 682,5	105,0
Qonliko`l	1 714,1	105,1
Qorao`zak	2 127,0	104,7
Kegayli	796,9	104,4
Qo`ng`irot	1 877,4	105,3
Mo`ynoq	760,3	104,0
Nukus	1 264,9	104,1
Taxiatosh	1 088,1	104,7
Taxtako`pir	2 177,8	105,6
To`rtko`l	1 414,6	104,6
Xo`jayli	2 607,7	105,4
Chimboy	1 186,3	104,8
Shumanoy	1 302,1	106,6
Ellikqal`a	1 210,2	103,1
Nukus shahri	3 320,5	113,7

Jumladan, 2019 yilning yanvar-avgust oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,1 %ni tashkil etib, 105,3 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 6,1 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


## **QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING** **ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

*(2019 yil yanvar-avgust)*

Yil boshidan respublika bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 161,0 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 15,9 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko`ra 645,2 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 101,3 %ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 55,6 %ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko`rsatkichni tumanlar bo`yicha tahlil qilganda, Beruniy, Qorao`zak, Qo`ng`irot, Qonliko`l, Mo`ynoq, Nukus, Taxtako`pir va Ellikqal`a tumanlarida 100 %ni tashkil etgan.

### **Yirik va kichik korxonalarining** **ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 44,4 %ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Xo'jayli (jamiga nisbatan ulushi – 95,1 %), Nukus shahri (44,7 %) va Amudaryo (4,8 %) tumanlarida kuzatildi.

### Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1 161 008,6</b>	<b>115,9</b>	<b>515 826,7</b>	<b>141,3</b>	<b>645 181,9</b>	<b>101,3</b>
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	13 804,2	102,3	669,3	132,2	13 134,9	101,2
Beruniy	51 865,5	101,3	-	-	51 865,5	101,6
Qonliko'l	15 336,5	101,5	-	-	15 336,5	101,5
Qorao'zak	9 241,4	101,0	-	-	9 241,4	101,0
Kegayli	619,4	98,4	0,5	2,8	619,0	101,0
Qo'ng'iro't	26 433,4	101,1	-	-	26 433,4	101,2
Mo'ynoq	2 257,2	101,0	-	-	2 257,2	101,0
Nukus	56 137,5	101,0	-	-	56 137,5	101,0
Taxiatosh	16 616,0	100,4	488,0	70,7	16 128,0	101,7
Taxtako'pir	7 344,8	101,2	0,4	1,1	7 344,4	101,7
To'rtko'l	53 897,9	92,5	1 862,6	26,9	52 035,3	101,3
Xo'jayli	263 898,0	166,8	250 850,9	172,7	13 047,1	101,1
Chimboy	16 433,5	95,4	383,8	27,3	16 049,8	101,5
Shumanoy	288,2	97,9	3,5	27,9	284,7	101,0
Ellikqal'a	41 245,3	101,2	-	-	41 245,3	101,2
Nukus sh.	585 589,9	110,6	261 567,9	124,6	324 022,0	101,3



### Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati To'rtko'l (92,5 %) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-82-06